

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

zavodi ta'sirida o'zgarishi	260
M.Sh.Xidirov	
Geographical approaches to improving the territorial structure of service sectors in Kashkadarya region	265
D.X.Jo'raqulova, X.J., Jurakulov B.B. Malikov, Sh.A. Ravshanov	
Janubiy-g'arbiy O'zbekistonda antropogen landshaftlar shakllanishida g'orlarning tutgan o'rni (Surxondaryo havzasi misolida)	271
N.D.Qosimov	
Sangzor havzasining turizm salohiyatini oshirish imkoniyatlari va tabiiy resurslar tahlili	276
X.A.Abduxakimova, A.A.Nematov	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoviy xossalari va unumdorligi	280
S.A.Ibroximova, D.M.Xoldarov, B.M.Qo'chqorov	
Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari	287

GEOGRAFIYA

Y.I.Axmadaliyev, O.I.Abduganiev	
Biologik xilma-xillik bo'yicha kunming-monreal global dasturini (GBF) O'zbekistonda amalga oshirishning geoeologik asoslari	293
N.A.Esanov	
Shaharchalarning joylashgan o'rni iqtisodiy-geografik rivojlanish omili (Termiz tumani misolida)	307
M.T.G'oziyeva	
Zominsuv havzasining rekreatsiya resurslardan oqilona foydalangan holda turizmni rivojlantirish yo'llari	313
M.T.G'oziyeva	
Zomin suv havzasida turizmni rivojlantirishiga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillar	317
Sh.M.Sharipov, N.R.Samatova	
Toshkent viloyatida jar eroziyasi xavfi: DEM va GIS tahlili	322
B.A.Dadajonov, A.A.Abdubannopov	
Aqlli ko'chat ekish mashinasi – yashil kelajak uchun innovatsiya	331
O.I.Abduganiev, D.B.Kosimov, Z.I. Mamirova	
Landshaftlardagi bog'lanishni modellashtirish asosida ekologik tarmoqlarni shakllantirish	337
L.M.Saydaliyeva	
Sakral landhsftlarning hosil bo'lishi va funksiyalari	346
A.A.Xamidov	
Farg'ona vodiysi tabiat komplekslarining xx-asrda tadqiq qilinishi natijalari	354
B.A.Dadajonov, A.A.Abdubannopov	
Agroai drone – sun'iy intellektli aqlli qishloq xo'jaligi monitoring platformasi	357
U.T.Egamberdiyeva, A.B.Bozorboyev	
Xovos tumani aholisining joylanishi va demografik rivojlanish xususiyatlari	361
H.N.Naimov	
Shimoliy Farg'ona tog'oldi hududi landshaft-ekologik sharoitining hozirgi holati va uni baholash	367
J.A.Ismatov	
O'zbekiston monoshaharlari aholisi sonining dinamikasi	372
O.I.Abduganiev, T.D.Komilova	
MSPA-Mcr modeli asosida ekologik karkasni shakllantirish va optimallashtirish mezonlari	379
R.Y.Xoliqov, O.A.Qo'chqorov, S.B.Saydullayeva	
Landshaftlarning ekologik holatining o'zgarishi va ularni baholash:(Farg'ona vodiysi yirik shaharlar misolida)	395
B.R.Rapiqov	
Norin-Sirdaryo havzasidagi suv omborlaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari	399

EKOLOGIYA



UO'K: 314.15:332.1(575.1)

O'ZBEKISTON MONOSHAHARLARI AHOLISI SONINING DINAMIKASI

ДИНАМИКА ЧИСЛЕННОСТИ МОНОГОРОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

THE DYNAMICS OF THE POPULATION OF MONOCITIES IN UZBEKISTAN

Ismatov Jaxongir Atavullayevich 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Geografiya kafedrası dots. v.b., g.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Mustaqillik yillarida O'zbekiston monoshaharlari aholisi soni dinamikasining davriy o'zgarishlari, umumiy rivojlanish tendensiyalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liqligi tahlil etilib, shaharlarning funksional tiplari kesimida demografik jarayonlarning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan hamda aholi soniga sanoat tarmoqlari, ayrim shaharlar ma'muriy maqomidagi o'zgarishlar, tabiiy ko'payish va migratsion harakatlarning ta'siri tadqiq qilingan.

Аннотация

В статье анализируются периодические изменения в динамике численности населения моногородов Узбекистана за годы независимости, их взаимосвязь с общими тенденциями развития и социально-экономическими факторами, раскрываются особенности демографических процессов в функциональных типах городов, изучается влияние на численность населения отраслей промышленности, изменений административного статуса отдельных городов, естественного прироста и миграционных перемещений.

Abstract

The article analyzes the periodic changes in the population dynamics of Uzbekistan's monocities during the years of independence, their relationship with general development trends and socio-economic factors, reveals the specific features of demographic processes across different functional types of cities, and examines the influence of industrial sectors, changes in the administrative status of certain cities, natural population growth, and migration movements on population size.

Kalit so'zlar: monoshahar, aholi soni dinamikasi, migratsiya, shaharlarning funksional tiplari, ko'p funksiyali shaharlar, ko'p tarmoqli sanoat shaharlari, tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari, rekreatsiya va turizm shaharlari.

Ключевые слова: моногород, динамика населения, миграция, функциональные типы городов, многофункциональные города, многоотраслевые промышленные города, узкоспециализированные промышленные города, города рекреации и туризма.

Key words: monocity, population dynamics, migration, functional types of cities, multifunctional cities, multi-industry industrial cities, highly specialized industrial cities, recreation and tourism cities.

KIRISH

Aholi soni dinamikasi iqtisodiy geografik tadqiqotlarda, xususan, geourbanistikaga oid ilmiy ishlarda o'rganiladigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Binobarin, monoshaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muayyan jihatlari ularning aholi soni dinamikasida aks etgani bois, Mustaqillik yillarida respublika shahar manzilgohlari aholisi soni va uning davriy o'zgarishini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Monoshaharlarda kechadigan demografik jarayonlar sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, ishlab chiqarishning barqarorligi, shaharlarning ma'muriy maqomidagi o'zgarishlar, tabiiy ko'payish hamda ichki va tashqi migratsiya kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, shahar hosil qiluvchi korxonalarning faoliyati va ixtisoslashuv darajasi aholining joylashuvi va o'sish sur'atlarida bevosita o'z ifodasini topadi. Shu bois, monoshaharlar aholisi soni dinamikasini tahlil qilish ularning iqtisodiy-ijtimoiy barqarorligini baholash uchun zaruriy shart hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish joizki, ish hajmini optimallashtirish maqsadida mazkur maqolada tahlillar faqat shahar aholi punktlari kesimida beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda monoshaharlarning rivojlanishiga aloqador masalalarni o'zining geourbanistikaga bag'ishlangan tadqiqotlarida N.V.Smirnov [3], T.I.Raimov, O.B.Ata-Mirzayev [2,

GEOGRAFIYA

3], A.S.Soliyev [8, 9], E.A.Axmedov [4], A.A.Qayumov [15], N.X.Mamatqulov, S.Haydarov, Z.T.Abdalova [1], G.A.Xodjayeva [13], Z.N.Tojiyeva [11, 12], S.K.Tashtayeva [10], M.M.Egamberdiyeva [14], A.M.Mavlonov [5, 6], P.R.Qurbonov [16] kabi iqtisodiy geograflar muayyan darajada ko'rib chiqqan. Bu borada, ayniqsa, Z.X.Rayimjonovning O'rta Osiyo resurs shaharlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq [7].

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari asos qilib olindi. 1990–2023-yillarni qamrab olgan statistik ko'rsatkichlar shaharlar aholisining davriy o'zgarishlarini tahlil qilish imkonini berdi. Shaharlarning funksional tiplari bo'yicha solishtirma tahlillar o'tkazilib, natijalarni yanada aniqroq yoritish maqsadida ayrim shaharlar misolida chuqur tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu orqali monoshaharlar aholisi soni dinamikasining umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanib, ularning iqtisodiy-geografik jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi ochib berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston shaharlarining aholi soni dinamikasini shaharlarning funksional tiplari kesimida o'rganish shaharlar aholi soni o'zgarishining umumiy jihatlari aniqlash bilan birga monoshaharlar va tor ixtisoslashmagan shaharlar aholi soni va uning dinamikasining o'ziga xos xususiyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadvalga e'tibor bersak, ko'p funksiyali poytaxt shahar sifatida alohida funksional tipga ajratilgan Toshkent shahri aholisi soni ko'rilayotgan davr mobaynida deyarli hamma vaqt ortib borganini ko'rishimiz mumkin. Faqatgina 2000–2005-yillar oralig'ida poytaxt aholisi biroz (25,3 ming kishiga) kamayib, aholi soni o'zgarish indeksi 0,99 ga teng bo'lgan (2-jadval). 2005-yildan keyingi davr mobaynida Toshkent shahri aholisi soni muntazam o'sib kelgan bo'lib, ayniqsa, so'nggi yillarda poytaxt aholisi soni sezilarli darajada ortgan hamda 2020–2023-yillar oralig'ida aholi soni o'zgarish indeksi 1,15 ga teng bo'lgan. Bunda Toshkent shahrida turar joylar qurish hajmining sezilarli darajada ortishi hamda poytaxtda doimiy ro'yxatdan o'tish uchun berilgan yengilliklar ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo'yicha aholi soni dinamikasi

T/r	Shaharlarning funksional tiplari	Shaharlar soni	Aholi soni, ming kishi							
			1990-y.	1995-y.	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2023-y.
1.	Ko'p funksiyali poytaxt shahar	1	2093,9	2109,1	2154,2	2128,9	2234,3	2364,5	2557,6	2949,5
2.	Ko'p funksiyali hududlararo va viloyat markazlari	2	544,9	551,3	571,9	619,3	643,7	784,4	835,2	876,4
3.	Ko'p funksiyali viloyat markazlari	10	1685,1	1799,7	1933,2	1967,9	2124	2300,2	2591,5	2775,6
4.	Ma'muriy va sanoat funksiyali viloyat markazi	1	17,8	20,4	21,6	21,9	22,7	24,1	48,7	54,1
5.	Ko'p funksiyali tumanlararo markazlar	13	868,3	941,5	1022,8	1069,6	1128,2	1210,7	1332,7	1443,3
6.	Ko'p tarmoqli sanoat shaharlari	5	420,8	412,2	420,1	422,3	447,5	450	483,9	539,3
7.	Ko'p funksiyali shaharlar – tuman markazlari	13	322,8	352,4	376,2	381,4	389,4	413,6	439,8	458,8
8.	<i>Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari</i>	8	144,3	147,9	157,8	160	186,8	198,5	216,6	228,7
9.	<i>Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari – tuman markazlari</i>	5	108,7	117,5	127,8	128,4	130,9	148,9	162,2	174,6
10.	Agrosanoat va servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari	45	857,1	970,9	1055,4	1111,5	1190,5	1303,8	1411,4	1483,2
11.	Rekreatsiya va turizm shaharlari – tuman markazlari	2	76,8	87,5	95,6	99,5	106,5	114,5	150,2	158,6
12.	Mahalliy servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari	8	99,6	122	128,6	130	132,3	140,5	152,6	160,9
13.	Mahalliy agrosanoat va servis markazlari	6	73,8	83,6	93,8	101,7	109,3	132,1	141,8	149,5
14.	<i>Rekreatsiya va turizm shaharlari</i>	1	11,9	11,0	9,6	8,9	9,0	8,9	9,5	9,4
Jami		120	7325,8	7727	8168,6	8351,3	8855,1	9594,7	10533,7	11461,9

Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarildi.

O'zbekiston shaharlari aholi sonining o'zgarish indeksi

T/r	Shaharlarning funksional tiplari	1995 – 1990-yy.	2000 – 1995-yy.	2005 – 2000-yy.	2010 – 2005-yy.	2015 – 2010-yy.	2020 – 2015-yy.	2023 – 2020-yy.	2023 – 1990-yy.
1.	Ko'p funksiyali poytaxt shahar	1,01	1,02	0,99	1,05	1,06	1,08	1,15	1,41
2.	Ko'p funksiyali hududlararo va viloyat markazlari	1,01	1,04	1,08	1,04	1,22	1,06	1,05	1,61
3.	Ko'p funksiyali viloyat markazlari	1,07	1,07	1,02	1,08	1,08	1,13	1,07	1,65
4.	Ma'muriy va sanoat funksiyali viloyat markazi	1,15	1,06	1,01	1,04	1,06	2,02	1,11	3,04
5.	Ko'p funksiyali tumanlararo markazlar	1,08	1,09	1,05	1,05	1,07	1,10	1,08	1,66
6.	Ko'p tarmoqli sanoat shaharlari	0,98	1,02	1,01	1,06	1,01	1,08	1,11	1,28
7.	Ko'p funksiyali shaharlar – tuman markazlari	1,09	1,07	1,01	1,02	1,06	1,06	1,04	1,42
8.	<i>Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari</i>	<i>1,02</i>	<i>1,07</i>	<i>1,01</i>	<i>1,17</i>	<i>1,06</i>	<i>1,09</i>	<i>1,06</i>	<i>1,58</i>
9.	<i>Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari – tuman markazlari</i>	<i>1,08</i>	<i>1,09</i>	<i>1,00</i>	<i>1,02</i>	<i>1,14</i>	<i>1,09</i>	<i>1,08</i>	<i>1,61</i>
10.	Agrosanoat va servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari	1,13	1,09	1,05	1,07	1,10	1,08	1,05	1,73
11.	Rekreatsiya va turizm shaharlari – tuman markazlari	1,14	1,09	1,04	1,07	1,08	1,31	1,06	2,07
12.	Mahalliy servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari	1,22	1,05	1,01	1,02	1,06	1,09	1,05	1,62
13.	Mahalliy agrosanoat va servis markazlari	1,13	1,12	1,08	1,07	1,21	1,07	1,05	2,03
14.	<i>Rekreatsiya va turizm shaharlari</i>	<i>0,92</i>	<i>0,87</i>	<i>0,93</i>	<i>1,01</i>	<i>0,99</i>	<i>1,07</i>	<i>0,99</i>	<i>0,79</i>
jami		1,05	1,06	1,02	1,06	1,08	1,10	1,09	1,56

Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarildi.

Shunday bo'lsada, tahlil etilayotgan davr mobaynida poytaxt aholisining umumiy o'sish ko'rsatkichi (1,41) respublika shahar aholisi o'sishining o'rtacha ko'rsatkichidan (1,56) biroz pastroq.

Ko'p funksiyali hududlararo va viloyat markazlari tipiga mansub Samarqand va Nukus shaharlari hamda ko'p funksiyali viloyat markazlari toifasini tashkil etuvchi shaharlar aholisi so'nggi o'n yilliklarda muntazam ortib kelgan bo'lib, 1990- va 2023-yillar mobaynida aholi sonining o'zgarish indeksi mos ravishda 1,61 va 1,65 ga teng bo'lgan. Bu kabi ma'muriy funksiyaga ega yirik shaharlar aholisi sonining barqaror ortib borishida ular hududining atrofdagi qishloq tumanlari hisobiga kengayib borishi ham sezilarli ahamiyatga ega.

Ko'rilayotgan davr mobaynida aholining eng katta sur'atda o'sishi (3,04) ma'muriy va sanoat funksiyali viloyat markazi sifatida tavsiflanadigan Nurafshon shahriga tegishli bo'lib, mazkur holat bevosita ushbu shaharning viloyat markazi maqomini olishi bilan izohlanadi. Aynan Nurafshon shahri viloyat markazi maqomini olgan 2015–2020-yillar oralig'ida shahar aholisi 21,7 ming kishidan 48,7 ming kishiga ko'paygan yoki bu vaqtda aholi soni o'zgarish indeksi 2,02 ga teng bo'lgan.

Ko'p funksiyali tumanlararo markazlar tipiga mansub shaharlar aholisi soni ham so'nggi o'n yilliklarda muntazam o'sib kelgan bo'lib, ko'rilayotgan davr mobaynida umumiy o'sish indeksi 1,66 ni tashkil etgan. Ko'p tarmoqli sanoat shaharlarida vaziyat boshqacha bo'lib, ularda 1990–1995-yillarda aholi sonining o'zgarish indeksi 0,98 ni tashkil etgani holda, undan keyingi davrlarda aholi soni doimiy ravishda ortib kelgan bo'lsa-da, aholi sonining umumiy o'sish indeksi (1,28) aksariyat boshqa tiplarga mansub shaharlarga va mamlakat shaharlarining o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan sezilarli darajada pastligi bilan ajralib turadi. Mazkur holatni respublika mustaqilligining dastlabki yillarida sobiq Ittifoq respublikalari bilan iqtisodiy zanjirning uzilishi natijasida mavjud aloqalarda yuzaga kelgan murakkab vaziyat tufayli, ayniqsa, og'ir sanoat korxonalarida ishlab chiqarish sur'atlarining keskin pasayishi va bu, o'z navbatida, yirik sanoat shaharlari aholisi sonida aks etganligi bilan izohlash mumkin.

Ko'p funksiyali shaharlar – tuman markazlari guruhini tashkil etuvchi shaharlar Mustaqillik yillarida aholisining o'sish ko'rsatkichlari birmuncha pastligi bilan ajralib turadi. Shu bois, umumiy o'sish indeksi (1,42) ham respublika o'rtacha ko'rsatkichidan orqada.

Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari hamda funksiyasi sanoatining tor ixtisoslashganligi bilan birga tuman markazi maqomiga egaligi bilan tavsiflanadigan shaharlar aholisi dinamikasi va uning o'zgarish indeksi respublikaning aksariyat shaharlaridagi vaziyatdan deyarli farq qilmaydi. Ajablanarlisi, ushbu toifadagi shaharlar aholisi soni ko'rilayotgan davr mobaynida muntazam ortib kelgan bo'lib, umumiy o'zgarish indeksi mos ravishda 1,58 va 1,61 ni tashkil etgan, ya'ni mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan ham yuqori bo'lgan. Mazkur holatni mamlakatda tug'ilish va tabiiy ko'payish darajasi yuqoriligi hisobiga turar joyga bo'lgan talabning yildan yilga o'sib borayotgani natijasida monoshaharlardan chetga ko'chib ketgan aholi o'rni ichki migratsiya hisobiga qoplangani, mazkur shaharlar ko'proq aholining yashash manzilgohiga aylanib qolgani, ya'ni odamlar bu yerdan ish topa olmasa ham ichki va tashqi migratsiya orqali band bo'lishi singari omillar bilan izohlash mumkin. Fikrimizcha, bunga joriy statistik ma'lumotlar ayrim o'rinlarda haqiqiy holatni aks ettirmasligi ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ma'muriy funksiyasi mavjud agrosanoat va servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari, rekreatsiya va turizm shaharlari – tuman markazlari, mahalliy servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari, shu bilan birga, mahalliy agrosanoat va servis markazlari toifasiga kiruvchi shaharlar aholisi ham so'nggi o'n yilliklarda muntazam ortib kelgan bo'lib, ushbu holatni mazkur shaharlarda tug'ilish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari yuqoriligi bilan izohlash mumkin.

Ushbu davrda aholi soni o'sishidagi eng past ko'rsatkich rekreatsiya va turizm shahri sifatida tavsiflanuvchi Yangiobod shahriga taalluqli bo'lib, ko'rilayotgan davrda aholi sonining o'zgarish indeksi 0,79 ga teng bo'lgan. Biroq, yuqorida keltirilgan mazkur shaharda haqiqatda yashovchi aholi soni haqidagi bahsli vaziyatga e'tibor qaratsak, Yangiobod shahri aholisi sonining o'zgarish indeksi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi taqdim etgan ma'lumotlar asosida hisoblangan ko'rsatkichlardan bir necha baravar farqlanishini anglash mumkin. Umuman olganda, joriy statistikada ham, mahalliy hokimiyat vakillaridan olingan ma'lumotlarda ham mazkur shahar aholisi sonining o'sishi boshqa funksional tipdagi shaharlardan va mamlakat shaharlarining o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli darajada past bo'lib, mazkur holatni Yangiobod shahriga asos

GEOGRAFIYA

soluvchi korxona faoliyatining tugatilishi bilan izohlash mumkin. Shaharning Chotqol tog' yonbag'rida joylashganligi, so'lim tabiati, qolaversa, poytaxtga yaqinligi bois tabiiy rekreatsion salohiyatining ahamiyati ortib borishi uni relikt shaharga aylanib qolmasligiga turtki bo'lmoqda.

Ko'rilayotgan davr mobaynida aholi soni dinamikasini monoshaharlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, Quvasoy (217 %), G'ozg'on (194 %), Asaka (176 %), Muborak (171 %), Tinchlik (162 %), Qorovulbozor (161 %), Zarafshon (159 %), Pitnak (158 %) va Shirin (157 %) shaharlarida aholi o'sishining nisbatan yuqori ko'rsatkichlari qayd etilgan bo'lsa, Xonobod (131 %), Uchquduq (127 %) hamda Sharg'un (123 %) shaharlarida mazkur ko'rsatkich biroz pastroq. Gazli (93 %) va Yangiobod (79 %) shaharlari esa ushbu davrda aholisi soni kamaygani bilan tavsiflanadi.

Tor ixtisoslashgan shaharlar aholi soni dinamikasida ularning xo'jalik ixtisoslashuvi hamda shahar hosil qiluvchi tarmoqlar barqarorligining ta'siri muhim o'rin tutadi. Chunonchi, Quvasoy, G'ozg'on, Asaka, Muborak singari shaharlarda shahar hosil qiluvchi tarmoq va korxonalar jadal rivojlanib kelayotgani ularning aholi soni dinamikasida namoyon bo'lmoqda. Qayd etish lozimki, Quvasoy va G'ozg'on shaharlari aholisi sonining yuqori sur'atlarda o'sganligi ma'muriy chegaralari maxsus hukumat qarorlari asosida kengaytirilganligi bilan ham bog'liq.

Ta'kidlash kerakki, respublika mustaqilligining dastlabki yillarida ayrim monoshaharlarda aholining jadal ravishda ko'chib ketishi kuzatilgan bo'lsa-da, ichki migratsion oqim tufayli doimiy aholi soni deyarli o'zgarmagan. Tashkil topgan va rivojlangan vaqtlarda qulay infratuzilma shakllanganligi, uy-joy kommunal xizmatlarining yaxshi yo'lga qo'yilganligi va albatta, turar joylarning nisbatan arzonligi tor ixtisoslashgan shaharlarga, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi aholining faol migratsiyasiga sabab bo'lgan.

XULOSA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Mustaqillik yillarida O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari kesimida aholisi soni dinamikasida sezilarli farqlar mavjud. Poytaxt va yirik viloyat markazlari aholisi barqaror o'sish tendentsiyasini namoyon qilgan bo'lsa, ayrim sanoat shaharlari va tor ixtisoslashgan shaharlarda sanoat tarmoqlaridagi inqirozlar, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi yoki korxonalar faoliyatining tugatilishi bilan bog'liq holda aholi sonining qisqa vaqt davomida kamayishi kuzatilgan. Shunga qaramay, tabiiy ko'payish va ichki migratsion oqimlar natijasida ko'plab shaharlarning aholisi muntazam ortib borgan, ba'zi hollarda esa yuqori o'sish ko'rsatkichlari qayd etilgan.

Monoshaharlardagi demografik jarayonlar asosan ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib, shahar hosil qiluvchi korxonalarning faoliyati, ishlab chiqarishning modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi, ayrim hollarda ma'muriy maqomdagi o'zgarishlar aholining soni va tarkibini belgilovchi asosiy jihatlar bo'lib xizmat qiladi. Demak, monoshaharlarni barqaror rivojlantirish uchun demografik jarayonlarni iqtisodiy-geografik sharoit bilan uyg'unlashtirgan holda izchil boshqarish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдалова З.Т. Социально-экономические условия развития городских поселений Нижнеамударьинского района: автореф. ... дисс. канд. геогр. наук. – Ташкент, 1995. – 24 с.
2. Ата-Мирзаев О.Б. Геодемографическое исследование городского расселения и управления процессом урбанизации на национально-территориальном уровне (на примере Республики Узбекистан): дисс. ... док. геогр. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – 34 с.
3. Ата-Мирзаев О.Б., Смирнов Н.В. Типология и пути развития городов Узбекистана // Известия Узбекистанского географического общества. 1971. Том XIII. – С. 180-191.
4. Ахмедов Э.А. Комплексное социально-экономическое развитие городов Узбекской ССР: автореф. дисс. ... док. экон. наук. – Ташкент, 1990. – 41 с.
5. Мавлонов А.М. Муствакиллик йилларида шаҳарларнинг функционал типларидаги ўзгаришлар // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 2015. 46-жилд. – Б. 120-123.
6. Мавлонов А.М. Чўл шароитида шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланиш муаммолари (Бухоро вилояти мисолида): геогр. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2010. – 27 б.
7. Райимжонов З.Х. Развитие ресурсных городов Средней Азии: дисс. ... канд. геогр. наук. – Ташкент, 1992. – 160 с.
8. Салиев А. Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1991. – 112 с.
9. Салиев А. Развитие населённых мест и региональная политика расселения // Известия Узбекистанского географического общества. Том 15. – Ташкент, 1989. – С. 36-41.

10. Таштаева С.К. Ўзбекистон шаҳар агломерацияларининг шаклланиш ва ривожланиш хусусиятлари (Тошкент агломерацияси мисолида): геогр. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2011. – 26 б.
11. Тожиева З.Н. Жиззах вилояти аҳоли манзилгоҳлари, уларнинг тадрийжий ўзгаришлари ва функционал турлари // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 2002. 22-жилд. – Б. 45-46.
12. Тожиева З., Сатторов А. Аҳоли манзилгоҳлари, уларнинг функционал турлари ва шакллари // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 2005. 26-жилд. – Б. 74-76.
13. Ходжаева Г.А. Геодемографическая ситуация и регулирование развития населения Каракалпакстана: автореф. дисс. ... канд. геогр. наук. – Ташкент, 1998. – 21 с.
14. Эгамбердиева М.М. Бозор иқтисодиёти шароитида шаҳарлар ривожланишининг минтақавий муаммолари (Тошкент вилояти мисолида): геогр. фан. номз. дисс. ... автореферати. – Тошкент, 2008. – 26 б.
15. Қаямов А.А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнининг регионал хусусиятлари // Ўзбекистон аҳолиси ва меҳнат ресурслари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Университет, 1992. – Б. 30-38.
16. Қурбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёни ривожланишининг омиллари ва иқтисодий географик асослари: геогр. фан. номз. дисс. ... автореферати. – Тошкент, 2012. – 28 б.